

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 3 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkan Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNII MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSALARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY HUUJATLAR IJROSINI TA'MINLASHNING XORIJIY MODELLARI VA MILLIY AMALIYOT UCHUN XULOSALAR	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

THE ROLE OF WOMEN IN THE SOCIO-POLITICAL LIFE OF SOCIETY

Chuboeva Ozodakhon Quvonbekovna

Acting Associate Professor,

Department of Criminal Procedural Law

Namangan State University

E-mail: o.chuboeva@mail.ru

Abstract. This article analyzes the role of women in the socio-political life of society and the legal foundations ensuring their active participation. The study examines national legislation, constitutional provisions, and international legal instruments that guarantee women's involvement in political and social processes. Particular attention is paid to legal mechanisms aimed at ensuring gender equality, existing challenges in their implementation, and possible ways of improvement. The article highlights the significance of legal regulation in enhancing women's socio-political activity.

Keywords: women, gender equality, socio-political life, legal foundations, constitutional guarantees.

XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI

Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna

Jinoyat protsessual huquqi kafedrasi v.b. dotsenti

Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada xotin-qizlarning jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni hamda ularning faolligini ta'minlashning huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda xotin-qizlarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kafolatlovchi milliy qonunchilik, konstitutsiyaviy normalar va xalqaro huquqiy hujjatlar o'rganiladi. Shuningdek, gender tengligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlar, ularni amalga oshirishdagi muammolar va takomillashtirish yo'llari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Maqola xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda huquqning o'rni va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, gender tengligi, ijtimoiy-siyosiy hayot, huquqiy asoslar, konstitutsiyaviy kafolatlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N36>

Kirish. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, demokratik islohotlar va barqaror rivojlanish masalalari xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni va faolligi bilan bevosita bog'liqdir. Xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvida, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida hamda fuqarolik jamiyati institutlarida faol ishtirok etishi ijtimoiy adolatni ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish va gender tengligini mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

So'nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar takomillashtirilmoqda. Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikni qo'llash amaliyotida mavjud muammolar, gender tengligini to'liq ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan omillar chuqur ilmiy-huquqiy tahlilni talab etadi.

Mazkur maqolada xotin-qizlarning jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rnini belgilovchi huquqiy asoslar, milliy qonunchilik va xalqaro huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, ularni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ilgari suriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda xotin-qizlarning jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rnini o'rganishda huquqiy-ilmiy tahlilga asoslangan metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida huquq nazariyasi va davlat-huquqiy ta'limotlarning umumiy tamoyillariga tayangan holda, kompleks va tizimli yondashuvdan foydalanildi.

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, tarixiy-huquqiy, formal-yuridik hamda tizimli tahlil metodlari qo'llanildi. Qiyosiy-huquqiy metod orqali xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini ta'minlashga qaratilgan milliy qonunchilik normalari va xalqaro huquqiy hujjatlar o'zaro solishtirildi. Tarixiy-huquqiy metod yordamida gender tengligi va xotin-qizlar huquqlarining shakllanish va rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi.

Shuningdek, formal-yuridik metod qonun normalarining mazmuni va huquqiy mohiyatini aniqlashda qo'llanildi, tizimli tahlil esa xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokini ta'minlovchi huquqiy mexanizmlarni o'zaro bog'liqlikda o'rganish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari asosida ilmiy xulosalar chiqarilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida xotin-qizlarning jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtirokini ta'minlashga qaratilgan huquqiy asoslar va ularning amaliy ijrosi tahlil qilindi. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, milliy qonunchilikda xotin-qizlarning teng huquqliligini ta'minlashga doir muhim normalar belgilangan bo'lib, ular konstitutsiyaviy tamoyillar hamda xalqaro huquqiy standartlarga mos keladi.

Tahlil natijalariga ko'ra, xotin-qizlarning davlat boshqaruvi va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki yildan-yilga oshib borayotgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkichlar hali jamiyatdagi real ijtimoiy-siyosiy salohiyatga to'liq mos kelmaydi. Ayrim holatlarda huquqiy kafolatlarning mavjudligi ularning samarali amalga oshirilishini to'liq ta'minlamayotgani aniqlandi. Bu esa huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tahlil jarayonida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligiga ta'sir etuvchi omillar – ijtimoiy stereotiplar, institutsional to'siqlar va huquqiy madaniyat darajasi – muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu omillar gender tengligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarning to'liq ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rnini mustahkamlash nafaqat huquqiy normalarni takomillashtirish, balki ularni amalga oshirishning institutsional va ijtimoiy mexanizmlarini kuchaytirishni ham talab etadi. Shu asosda, xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan huquqiy va tashkiliy choralarni kompleks tarzda rivojlantirish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti ijtimoiy guruhlarining, xususan, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligi va ishtirok darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Jamiyatning barqaror rivojlanishi, demokratik institutlarning mustahkamlanishi hamda ijtimoiy adolat tamoyillarining qaror topishida ayollarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga integratsiyalashuvi muhim sotsiologik ahamiyat kasb etadi. Shu bois, xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o'rni nafaqat gender tengligi masalasi sifatida, balki ijtimoiy taraqqiyotning muhim ko'rsatkichi sifatida ham tadqiq etilishi zarur.

Bugungi kunda xotin-qizlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rnini tahlil qilishda gender sotsiologiyasi, siyosiy sotsiologiya va ijtimoiy stratifikatsiya nazariyalari muhim

metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot yo'nalishi ayollarning ijtimoiy tenglikka erishish jarayonlari, qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki, siyosiy vakilligi hamda ijtimoiy faolligining jamiyat rivojiga ta'sirini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shu ma'noda, xotin-qizlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rnini sotsiologik jihatdan o'rganish nafaqat ilmiy ahamiyatga ega, balki amaliy jihatdan ham muhim bo'lib, davlat siyosatini takomillashtirish, gender tengligini ta'minlash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Har qanday davlat boshqaruvi muayyan qonun-qoidalarga asoslanadi. Ammo barcha zamonlarda ham ana shu umumiy qoidalar orasida ayollar hamda ularning jamiyatdagi o'rne va ahamiyati xususida ham alohida yondashuvlar mavjud bo'lgan. Bu borada Sharq xalqlari, xususan o'zbeklar tarixida umuminsoniy qadriyat darajasida e'tirof etilgan ibratli yondashuvlar mavjud. Zero, ayol ham o'zi yashayotgan jamiyatning haqiqiy a'zosi, faol subyekti hisoblanib, ijtimoiy munosabatlar mazmuni uning hayotida o'z in'ikosini topadi. Shuning uchun ham ayollarning haq – huquqlarini insoniy – ma'naviy me'yorlarga mos ravishda mavjud talab, ehtiyojlar darajasiga ko'tarilishi amaliy va fundamental xarakterga egadir.

Jamiyat rivojida ayollar o'rne beqiyos hisoblanadi. Davlat va din ishlarida o'z o'rniga ega bo'lgan Bibixonim, Nodirabegim kabi Sharq ayollari nomi tarixda ma'lum va mashhur. Xususan, Amir Temur va temuriylar davrida, undan keyingi zamonlarda ham yurtimizda yuqori mavqega ega ayol namoyandalar xalq orasida e'zozlanib, yuksak hurmat va ehtiromga sazovor bo'lganlar. Lekin Sharq ayollariga nisbatan berilgan tasniflarda moziyda islom ayollarga johillik qilgan deb tasniflaydi. Worldbulletin.net materiallari va boshqa manbalar asosida Abu Muslim tomonidan tayyorlangan maqolada ham bu masalaga e'tibor qaratilgan. Ushbu maqolada berilgan ma'lumotga ko'ra, Garvard universitetida din va ayollar muammolari bo'yicha tadqiqot olib borgan professor Laylo Ahmadning aytishicha, barcha (g'ayridin) sharqshunoslar quyidagi xulosaga ittifoq qilishgan. "Islom ayolga jabr-zulm qiladi. Musulmon jamiyatlarining qoloqlik sabablari ham aynan shu omil tufaylidir", deb aytilgan.

Islom ilm-ma'rifat sohasida ayollarni erkaklar bilan teng huquqli qilar ekan, Payg'ambar (s.a.v.): "Ilm talab qilish har bir muslim va muslima uchun farzdir" – deganlar. Ayol kishi nafaqat ta'lim olish, dars, xutba va va'z eshitishgagina haqli, balki ta'lim va dars berish hamda boshqa ilmiy ishlar bilan shug'ullanish huquqiga ham egadir. Ko'plab musulmalarning ilm-fan va madaniyat sohasida ulkan yutuqlarga erishganliklari ushbu fikrning yorqin dalilidir.

Milliy mentalitetimizda ayollarning oiladagi roli alohida tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Abu Ali ibn Sino oilada va bolalar tarbiyasida onaning o'rniga katta ahamiyat bergan. Alloma ayollardagi eng muhim fazilatlarga ularning turmush o'rtog'iga bo'lgan muhabbati, mahmadonalik qilmasligi, itoatkorligi, fikran va qalban pok bo'lishi, ozodalikka rioya qilishi, o'zini tuta bilishi, yig'inchoqligi, isrofgarchilikka yo'l qo'ymasligi, olijanobligi va boshqa xususiyatlarni kiritganini ko'rsatib o'tmoqchimiz[5. – B.123.].

Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmini tashkil etadigan xotin-qizlarning hayotda o'zlarining munosib o'rinlarini egallashi, o'zlaridagi salohiyatni namoyon etishlari va jamiyatda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarda ularning to'laqonli ishtirokini ta'minlash maqsadida ilk mustaqillik yillaridan boshlab, davlatimiz tomonidan imkoniyatlar yaratishda, avvalo, ularning onalik va oiladagi bosh tarbiyachilik vazifalariga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Chunki, bu ikkala o'ta muhim vazifani bajarishda ayolning jamiyatdagi mavqeyi, nufuzi, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ta'minlanganligi, ma'naviy-

ma'rifiy jihatdan yetukligi, siyosiy ongi, ijtimoiy tafakkuri, huquqiy madaniyati va savodxonligi beqiyos ahamiyatga molikdir.

Onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish, ayollarning turmush sharoitlarini hisobga olgan holda, ish bilan ta'minlash, opa-singillarimizning og'irini yengil qilish uchun har tomonlama imkoniyat yaratish, xotin- qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi o'rni va nufuzini oshirish bo'yicha davlat siyosatini faol davom ettirishni biz o'zimizning eng muhim vazifamiz, deb bilamiz",-deb ta'kidlashi, ayollarga nisbatan va oila institutini takomillashtirishni davomiy faoliyat ekanligini, avvalo, oilada ijtimoiy madaniyatni takomillashtirishni nazarda tutadi[1. – B. 8.].

Oila farzand uchun ko'zgu vazifasini o'taydi. U ko'zguda o'zini ko'radi. "Xalqimiz qush uyasida ko'rganini qiladi" degan hikmatli so'zida teran ma'no mujassam. Chunki farzandlar ilk tarbiya, axloq-odob mezonlarini, oiladan, avvalo, bobo-buvi ota-onasidan o'rganadi. Ayniqsa oilada asosiy tarbiyachi hisoblanadigan ayollarning farzandni xush-xulqli qilib tarbiyalashda ma'naviy yuksakligi, dunyoqarashi, savodxonligi muhim ahamiyat kasb etadi. Afsuski, ayrim oilalar jamiyat hamda o'z farzandlari oldidagi mas'uliyatni chuqur his qilmaydilar, yosh onalar norasidalarini eriga tashlab, pul topish umidida begona shaharlarda umrini o'tkazayotganliklariga tabiiy hol deb qarab bo'lmaydi. Chunki, millatning davomiyliigi avvalo ulug' zot hisoblangan ayollarning ma'naviy qiyofasiga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Mashoyixlar er buzilsa oila buziladi. Ayol buzilsa, olam buziladi, deyishgan. Zero, oqila, go'zal ayollar o'zlarining g'amxo'rliigi, mehribonligi, qalbi daryoligi bilan oiladagi, qolaversa, butun jamiyatdagi muvozanatni poklik, halollik, samimiyat va adolat muhitini saqlab turmoqlari kerak.

Ayollarni e'zozlash va hurmatlash zarurligi haqida biz yuqorida tilga olgan zardushtiylik dinidagi quyidagi o'gitlar ham e'tiborga molik: "Qizingni aqlli, tafakkuri yaxshi kishiga turmushga ber. Chunki aqlli va tafakkurli kishi xuddi hosildor yerga o'xshaydi, agar unga urug' tashlasang, unumli hosil olasan"[7. – B.98].

O'tgan chorak asr mobaynida jahonda bo'lgani kabi Respublikada ham tug'ilish darajasi kamayib bordi. Mamlakatda tug'ilish darajasining kamayib borayotganligini olimlar Zulxumor Tojiyeva tadqiqotida quyidagi fikrlarni keltirib o'tgan: "Bugungi kunda yangicha iqtisodiy munosabatlar, ayollarning bilimi, bandligining ortishi, turmush sharoiti, oilaning moddiy tomonlari "ko'p bolalik"ni ma'qul ko'rmaslikdan dalolat bermoqda. Bu esa ko'p bolalikdan "o'rtacha va kam bolalik"ka o'tish davri boshlanishiga olib keldi"[6. – B. 57.].

Davlat va jamiyatda ayollarga pozitiv munosabat tizimi yanada kuchaytirildi. "Ayolga bo'lgan hurmat-e'tibor – bu avvalo, oilaga, jamiyat kelajagiga bo'lgan hurmat-e'tibor ifodasidir"[2]. Natijada ayollarning ijtimoiy mavqeyiga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib, ularning jamiyatdagi haq-huquqlari yanada to'laroq ro'yobga chiqishiga erishilmoqda. Tadbirkor ayollar qatlami tobora kengayib bormoqda. Bu esa xotin-qizlarimizni turmushimizning turli jabhalarida yanada ijtimoiy faol bo'lishga, o'z vatanparvarlik tuyg'ularini amalga oshirishlariga qulay shart-sharoitlar tug'dirdi.

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitalari va uning hududiy bo'linmalarining faoliyati tubdan o'zgartirilib, aniq vazifalari belgilab olindi. Qabul qilingan farmon doirasida Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini tashkiliy-huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 qarori, hukumatning 6 qarori, 4 farmoyishi va 12 chora-tadbirlar

dasturi qabul qilindi[3]. Davlatning bu boradagi siyosati xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda xalqaro tajriba asosida huquqiy tizimlashtirilgan.

“2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida ham xotin-qizlarimizning haq-huquqlarini himoya qilish, ularni oliy ta‘limga yanada ko‘proq qamrab olishga alohida e‘tibor qaratilgani ham bejiz emas.

Yurtimizdagi turli korxonalardagi rahbar ayollar miqdorida ham o‘sish kuzatilmoqda. Bu ko‘rsatkich “2017-yili 44,2 foiz bo‘lgani holda, 2019-yilning o‘tgan davrida 45,3 foizga yetgan. Iqtisodiyot sohasida agar tadbirkor ayollar jami tadbirkorlik subyektlarining 29 foizini tashkil etsa, fermer xo‘jaligi rahbarlarining bor-yo‘g‘i 5,4 foizi ayollar ekan”[8].

Yurtimizda ayollar deputat, murabbiy, shifokor va boshqa sohalarda erkaklar bilan yonma-yon faoliyat yuritmoqda, tadbirkorlar uchun joriy etilgan imtiyozlardan keng foydalanmoqda, o‘z shaxsiy biznesiga, mol-mulkiga ega bo‘lmoqda.

Davlat va jamiyat boshqaruvida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, faoliyatini kuchaytirish, kasb-hunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta‘minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash zarurligi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risidagi qonunda deputatlikka nomzodlar ko‘rsatishda xotin-qizlar uchun 30 foizlik kvotaning belgilanganligi vakillik organlarida ularning samarali faoliyat yuritishi uchun xizmat qilmoqda. Hozirda 3 mingga yaqin faol xotin-qizlardan iborat kadrlar zaxirasi shakllantirilib, ularni deputatlik va rahbarlikka tayyorlash borasidagi o‘qishlar tashkil etilmoqda .

Bugungi kunda oliy boshqaruv organi hisoblangan Oliy Majlis Senatida – 17 nafar senator, Qonunchilik palatasida 21 nafar deputat ayol faoliyat olib bormoqda. Mahalliy Kengashda esa xalq vakillarini 23 foizdan ziyodini xotin-qizlar tashkil etdi. 2020-yil 5-yanvar Saylov komissiyasining ma‘lumotlariga ko‘ra Oliy Majlisning qonunchilik palatasiga qayta saylangan 150 nafar deputatlarning 48 nafari yoki qariyb uchdan bir qismini xotin-qizlar tashkil etdi. Siyosiy partiyalar quyidagicha o‘rinni egalladi: O‘zbekiston tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal demokratik partiyasidan 53 ta deputatlik o‘rni, O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan 36 ta deputatlik o‘rni, O‘zbekiston “Adolat” sotsial demokratik partiyasidan 24 ta deputatlik o‘rni, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan, 22 ta deputatlik o‘rni, O‘zbekiston Ekologik partiyasidan 15 ta deputatlik o‘rnini egalladi. Bu esa Mustaqil davlatimizda xotin-qizlarni siyosiy jarayonlarda ishtiroki oshib borayotganidan dalolatdir[4].

Xotin-qizlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni zamonaviy sotsiologik tahlillarda muhim tadqiqot obyekti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayollarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faol ishtiroki jamiyatning demokratik rivojlanishi, ijtimoiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. Xotin-qizlarning siyosiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasining yuksalishi jamiyatda qarorlar qabul qilish jarayonining yanada inklyuziv va samarali bo‘lishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, globallashuv va modernizatsiya jarayonlari xotin-qizlarning siyosiy ongida yangi qadriyatlar va xulq-atvor modellarining shakllanishiga olib kelmoqda. Bu holat ayollarning siyosiy madaniyatini rivojlantirish, ularning fuqarolik faolligini oshirish va ijtimoiy

mas'uliyatini mustahkamlash zaruratini yuzaga chiqaradi. Shu bois, ayollarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga integratsiyalashuvini chuqurroq o'rganish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini ta'minlash, oilaning barqarorligi va sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish ko'p jihatdan institutsional tizimlar faoliyati va mazkur sohada ishlovchi mutaxassislarining kasbiy salohiyatiga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tizimi hamda mahalla darajasida olib borilayotgan tizimli ishlar jamiyatda gender tengligini ta'minlash va oilani mustahkamlashga qaratilgan muhim mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan tashkil etilgan malaka oshirish kurslari ushbu yo'nalishda muhim institutsional tayanch hisoblanadi. Mazkur kurslar qo'mita tizimi xodimlari va mahalla xotin-qizlar faollarining kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, ularni zamonaviy sotsiologik, psixologik va huquqiy yondashuvlar bilan qurollantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, oilalar bilan ishlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, zo'ravonlikning oldini olish, bandlik va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlarda malakali kadrlar tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

"Oila o'quv platformasi" orqali amalga oshirilayotgan onlayn va oflayn o'quv kurslari xotin-qizlar bilan ishlash tizimida uzluksiz ta'limni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ushbu platforma orqali xodimlar va faollar oiladagi ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash, gender tengligini targ'ib etish, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida, oilaning jamiyatdagi ijtimoiy institut sifatidagi rolini kuchaytirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyat hayotining barcha jabhalarida faolligi izchil ortib bormoqda. Ular ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sohalarida munosib o'rin egallab, jamiyatdagi mavqe va maqomini mustahkamlab bormoqda. Xususan, O'zbekiston tarixida ilk bor Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylangan 150 nafar deputatning 48 nafari yoki 32 foizini xotin-qizlar tashkil etgani mamlakatimizning gender tenglik yo'lidagi muhim yutug'i hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkich O'zbekistonni dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa olib chiqdi. Senatda esa xotin-qizlar ulushi qariyb 25 foizga yetdi. Shuningdek, mahalliy Kengashlar deputatlarining 31 foizini xotin-qizlar tashkil etayotgani ularning hududiy boshqaruvdagi rolini kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Ayollarning boshqaruv va ijtimoiy institutlardagi ishtiroki ham sezilarli darajada kengaymoqda. Jumladan, boshqaruv lavozimlarida xotin-qizlar ulushi 27 foizni, siyosiy partiyalarda 44 foizni, oliy ta'lim tizimida 40 foizni, tadbirkorlik sohasida esa 35 foizni tashkil etmoqda. 81 ta vazirlik va idorada ilg'or va bilimli ayollardan iborat 15 ming nafardan ortiq kadrlar zaxirasining shakllantirilgani xotin-qizlarning professional salohiyatiga bo'lgan e'tiborning yaqqol ifodasidir. Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ular bilan manzilli ishlash maqsadida "Ayollar daftari" tizimining joriy etilishi ushbu yo'nalishdagi muhim institutsional mexanizmga aylandi.

Ayollarning ijtimoiy hayotni chuqur his etishining muhim omillaridan biri ularning oiladagi roli bilan bog'liqdir. Ayol – oila bekasi, farzandlar tarbiyachisi, ularning sog'lig'i va kelajagi uchun mas'ul shaxs sifatida jamiyat muammolariga befarq bo'la olmaydi. Shu sababli

siyosiy hayotda faol bo'lgan xotin-qizlar qonunlarning yanada hayotiy va amaliy bo'lishi, jamiyatdagi real muammolarga aniq yechimlar topilishi uchun faol harakat qilmoqda.

Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanganini "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" hamda "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" Davlat dasturi doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar yaqqol tasdiqlaydi. Ushbu hujjatlarda xotin-qizlarning oliy ta'limga qamrovini kengaytirish va ularning huquqlarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi.

So'nggi yillarda gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, ushbu sohada 25 ta qonun hujjati qabul qilindi. "Mo'tabar ayol" ko'krak nishonining ta'sis etilishi, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti laureatlarini qo'llab-quvvatlashning yangi tizimi yaratilishi xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini e'tirof etishning muhim shakllaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasida gender tenglikni to'laqonli ta'minlash maqsadida 2030-yilga qadar mo'ljallangan strategik yo'l xaritasi ishlab chiqildi. Ushbu hujjat qarorlar qabul qilish va ijro etishning barcha sohalarida hamda darajalarida xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida tenglik tamoyillarini joriy etishga qaratilgan. Strategiyada teng va sifatli ta'lim, qishloq joylarda qizlarning oliy ma'lumot olishini kengaytirish, zo'ravonlikka barham berish va odam savdosining oldini olish kabi masalalar qamrab olingan.

O'zbekistonda xotin-qizlar va erkaklar tengligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar keng qamrovli va tizimli xarakterga ega. Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosati inson manfaatlarini ustuvorligini ta'minlash bilan bir qatorda, xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini yuksaltirish, ularning huquq va imkoniyatlarini jamiyat taraqqiyotining muhim qadriyati sifatida qaror toptirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari xotin-qizlarning jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni va faolligini ta'minlash masalasi zamonaviy huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, milliy qonunchilikda xotin-qizlarning teng huquqliligini kafolatlovchi huquqiy normalar mavjud bo'lsa-da, ularning amaliy ijrosi har doim ham kutilgan darajada samarali emas.

Tadqiqot davomida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini cheklovchi asosiy omillar sifatida ijtimoiy stereotiplar, institutsional to'siqlar hamda huquqiy madaniyatning yetarli darajada shakllanmaganligi aniqlandi. Bu holatlar gender tengligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish va ularning amalda ishlashini kuchaytirishni taqozo etadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, xotin-qizlarning jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rnini mustahkamlash faqat huquqiy bazani rivojlantirish bilangina cheklanmasdan, balki huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish, institutsional mexanizmlarni kuchaytirish hamda jamiyatda gender tengligi madaniyatini shakllantirishni talab etadi. Ushbu yo'nalishda amalga oshiriladigan kompleks chora-tadbirlar demokratik taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev. Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga

- bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq.-Toshkent: O'zbekiston, 2017. –B. 8.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 21-iyunda, Oliy Majlis Cenatining yigirmanchi yalpi majlicida co'zlagan nutqi. "Hurriyat" gazetaci. 2019 22-iyun.
 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 7-martdagi Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali marocimdagi nutqi. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-khal-07-03-2019>
 4. 2019-yil 22-dekabr O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga caylov. <https://saylov.uz/uz/docs/2019-jil-22-dekabr-ozbekiston-respublikasi-olij-mazhlisi-qonunchilik-palatasi-deputatligiga-sajlov>
 5. Turg'unoy Egamberdieva. Ayol va ma'naviyat. // Ijtimoiy fikr, inson huquqlari. №4. 2003. -B.123.
 6. Tojiyeva Z. N. O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning xususiyatlari. Geografiya fanlari doktori diss. – Toshkent, 2017. – B. 57.
 7. Soliy Hasanov. Xorazm ma'rifati – olam ko'zgusi. - Toshkent: O'qituvchi, 1996. -B.98.
 8. Caidov A. Xotin-qizlar ijtimoiy-ciyociy faol bo'lca. <http://namhaqiqat.uz/siyosat/hotin-izlar-izhtimoiy-siyosiy-faol-bulsa.html>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).